

**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ PEDAGOGLARNING KASBIY
KOMPETENTSIYAGA YONDASHUVINI RIVOJLANTIRISH VA
TAKOMILLASHTIRISH**

Xalqaro Nordik Universiteti

1-kurs magistr talabasi

U. K. Karimova

ANNOTATSIYA: Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lif berishdagi kompetentstyaviy yondashuvda o'sib borayotgan bola shaxsni hayotga tayyorlash hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishni o'ziga singdirish, boshqa insonlar bilan muloqatga kirishishda o'zining "Men"ini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullari shakllantirishga tayyorgarlik nazarda tutiladi.

KALIT SO'ZLAR: informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, kognetiv rivojlanish, ijtimoiy kompetentsiya, innovatsion kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy va ijodiy hamkorlik.

АННОТАЦИЯ: В компетентностном подходе к воспитанию дошкольников подготовка растущего ребенка к жизни предполагает подготовку формирования способов деятельности, связанных с формированием его «Я» в общении с другими людьми, усвоением нравственных ценностей. стандарты и ценности, необходимые для решения жизненно важных вопросов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: информационная компетентность, творческая компетентность, когнитивное развитие, социальная компетентность, инновационная компетентность, коммуникативная компетентность, профессиональная компетентность, профессионально-творческое сотрудничество.

ABSTRACT: In the competence approach to the education of preschool children, the preparation of a growing child for life implies the preparation of the formation of methods of activity related to the formation of his "I" in communicating with other people, assimilation of the moral standards and values necessary to solve vital issues is caught.

KEYWORDS: information competence, creative competence, cognitive development, social competence, innovative competence, communicative competence, professional competence, professional and creative cooperation.

Dunyo ta'lismizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, loyihalar olib borilmoqda, ayniqsa pedagogik kasbiy tayyorgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda ham pedagogik kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ta'lim muassasalarida zamonaviy moddiy texnik baza yaratilgan hamda innovatsion ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan.

Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy- tarixiy tajriba asosida yosh avlodni xar tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy axloqiy kadriyatlar va dunyo qarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetentsiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetentsiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetentsiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolada umumiy muhim kompetentsiyalar kommunikativ kompetentsiya–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetentsiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetentsiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetentsiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Ilk Qadam: Bola rivojlanishi sohalaridagi kompetentsiyalar

Kognitiv rivojlanish (fikrlash): faoliyatni harakatlarning ketma-ketligi ko'rinishida tashkil etish qobiliyati, xotira.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish: o'z-o'ziga hurmatni, o'ziga ishonchni, mustaqillikni, boshqalarga yordam berishga qobiliyatini rivojlantiradi.

Jismoniy rivojlanish: mayda motorika ko'nikmalar (botinka iplarini bog'layotganda); yirik motorika ko'nikmalar (egilishda); ko'z o'lchami (ko'rish va qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish). Nutqning rivojlanganligi: so'z zahiralaring rivojlanishi (botinka, bog'lash, ip) boshqa til ko'nikmalar: qoniqishni ifodalaydi; yordam so'raydi; o'zi qilgan narsani tavsiflaydi. Ijodiy rivojlanish: bolada fantaziya tug'iladi, ular hech qanaqangi namunalarga qaramaydilar, hammasini o'zlar bajaradilar, chunki ularning o'zlar o'ylab chiqardilar (tugunni bantik ko'rinishida bog'lash mumkin). Ta'limiy-tarbiyaviy jarayon "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari" asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat dasturi asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

Mutaxassisning o‘z ustida ishlashi quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish

Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi.

1-bosqich

2-bosqich

3-bosqich

4-bosqich

5-bosqich

Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish ushbu qaror bo‘yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlash xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish.

Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish pedagogning quyidagi amaliy harakatlari mutaxassis sifatida uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi: aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi

- pedagogik bilimlar;
- psixologik bilimlar;
- mutaxassislik bilimlari;
- didaktik malakalar;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

Xulosa qilib aytishim mumkinki, mакtabgacha ta’lim pedagoglarining kasbiy kompetentsiyaga bo’lgan yondashuvini rivojlantirish va takomillashtirish, mакtabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining rivojlanishi uchun juda muhimdir. Mакtabgacha pedagoglarni ta’limning eng so’nggi nazariyalari, tadqiqotlari va ilg’or tajribalaridan xabardor bo’lish uchun uzlusiz kasbiy rivojlantirish muhumdir. Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondoshgan xolda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o’quv metodik adabiyotlar ishlab chiqish ilg’or xorijiy tajriba asosida mакtabgacha ta’lim tashkilotlarining raxbar va mutaxassislarida zamonaviy menijment va pedagogik texnalogiyalar bo’yicha sohaga oid bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish zarurdir. Mакtabgacha pedagoglarga innovatsiyalar kiritish va yangi o‘qitish usullari va yondashuvlari bilan tajriba o‘tkazish erkinligi va qo’llab-quvvatlanishi kerak. Bu pedagoglarni o‘z amaliyoti haqida ijodiy va tanqidiy fikrlashga undash orqali ularning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. <https://lex.uz> Талъим тугрисидаги конун [05.19.2020]
2. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 3379 б.
3. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет. қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 193 б.
4. Педагогика фанидан изоҳли луғат / Тузувчилар Ж.Ю.Ҳасанбоев ва бошқ. – Тошкент: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2009. – 671 б.

5. Психология. Қисқача изоҳли луғат / Тузувчилар: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳаррир М.Г.Давлетшин. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 1998. – 46 б.
6. Сайидахмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: ОПИ, 2003.
7. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.
8. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 205 б.